

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>N.U.Nurmatova</b>	
Yusuf Hamadoniy- tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi, mutasavvuf olim .....	428
<b>S.Q.Qaxxorova</b>	
Yoshlar ma'naviy salohiyatini oshirish ularni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash istiqbollari.....	432
<b>A.E.To'Iqinov</b>	
Janubiy Farg'ona kanali suvining tabiiy-geografik tavsifi .....	437
<b>Sh.T.Abbosova</b>	
Yurtimiz taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya strategiyasining istiqbollari .....	442
<b>М.Мирзарахим</b>	
Роль педагогических стратегий в интеграции искусственного интеллекта.....	448
<b>B.A.Talapov</b>	
Yangi O'zbekistonda inson huquqlari: xalqaro standartlar va milliy qonunchilik uyg'unligi .....	454
<b>Z.Y.Adilov</b>	
Mahmud Az-Zamaxshariy ma'naviy merosining falsafiy tahlili .....	459
<b>D.D.Boymirzayeva</b>	
Bo'lajak ta'lif menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirish va uning tashkiliy-boshqarish mexanizmlarini modernizatsiyalash.....	464
<b>I.I.Soliyev</b>	
Oliy ta'lif muassasalarida institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari .....	468
<b>Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov</b>	
Quyon go'shti aminokislota tarkibini o'rganish.....	472
<b>Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov</b>	
Quyon qo'shimcha mahsulotlarining mineral tarkibini o'rganish.....	477
<b>O.O.Isaqov</b>	
Talabalarda ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik tashxisi .....	483



УО'К: 930.85

**МАHMUD AZ-ZAMAXSHARIY MA'NAVIY MEROSINING FALSAFIY TAHLILI**  
**ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ МАХМУДА АЗ-ЗАМАКШАРИ**  
**PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF MAHMUD AZ-ZAMKHSHARI**

Adilov Zafar Yunusovich   
 Ma'mun universiteti dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada buyuk allomamiz, Abul-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariyning ta'lim tarbiya to'g'risidagi asarlari, fikr va qarashlarining butun jaxonda tutgan o'mni va pedagogic fikrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, shuningdek bugungi kun amaliyotidagi haqida fikr yuritilgan.*

**Аннотация**

*В этой статье рассматривается роль нашего великого учёного Абуль-Касима Махмуда ибн Умара ибн Мухаммада аз-Замахшари в образовании, роль его мыслей и взглядов во всём мире, а также его вклад в развитие педагогических идей, а также в сегодняшней практике считается.*

**Annotation**

*This article discusses the role of the works, thoughts, and views of our great scholar, Abul-Qasim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamakhshari on education throughout the world and his contribution to the development of pedagogical ideas, as well as their relevance in today's practice.*

**Kalit so'zlar:** Mahmud Zamakhshari, alloma, ka'ba, namiydoniy, xalq, islam, hadis, qur'on, ta'kid, qanoat, muholif, aqida, pand-nasixat, ilm, o'git, umuminsoniy qadriyatlar, yaxshi xulq, rostgo'yilik, yolg'onchilik, do'stlik, yaxshilik.

**Ключевые слова:** Махмуд Замахшари, аллама, Кааба, Намайдани, люди, ислам, хадисы, Коран, настойчивость, довольство, оппонент, вера, совет, знание, образование, универсальные ценности, хорошее поведение, правдивость, ложь, дружба, добро.

**Key words:** Mahmud Zamakhshari, scholar, Kaaba, Namiydan, people, Islam, hadith, Quran, emphasis, contentment, opposition, creed, advice, knowledge, teaching, universal human values, good behavior, truthfulness, lying, friendship, goodness.

**KIRISH**

Islom olamida o'ziga xos alohida hurmat va e'tiborga sazovor, musulmon yurtlari ichida bizga faxr bag'ishlovchi buyuk ajdodlarimizdan biri bu shubhasiz Mahmud Zamakhshariydir. Bu zotning ilm yo'lida chekkan riyozatlari, hadis ilmining rivojiga qo'shgan hissalari hamda yaratgan asarlari butun dunyoda tillardan-tillarga doston bo'lgan. Mahmud Zamakhshariydek zot haqida ko'p gapirish mumkin, ko'p gapirilgan ham, bundan keyin ham gapiriladi. Zero o'rta asrlar sharoitida bir millionga yaqin hadisni dunyo bo'ylab tarqalib ketgan minglab roviylardan birmabir yozib olib, tekshirib, tasniflab kitoblar ta'lif etish bugungi texnika va keng imkoniyatlar asrida ham hech kimga nasib etmayotgan buyuk xizmat va sharafdir. Mahmud Zamakhshariyning tarbiyaga oid asarlarida umuminsoniy qadriyatlarning o'ziga xos talqini va bu talqinning xususiyatlari masalasi tahlil qilinadi. Allomaning asarlaridagi irfon va islam ma'rifati bilan bog'liq jihatlarning umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq aloqadorligi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari maqolada muallifning masalaga doir shaxsiy nuqtai nazari ham keltirib o'tiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Az-Zamaxshariy o'zining birinchi maqolasida ilm va taqvoning hikmatiga urg'u berganidan so'ng, insonning maqsadi va mas'uliyati haqida so'z yuritdi. Chunki o'z mas'uliyatidan xabardor bo'lgan kishilar uchun Parvardigori, dunyo va oxirat oldidagi mas'uliyatini bilish osonroq bo'ladi. Hujjatul islam Imom G'azzoliy (r.a) ilmga quyidagicha ta'rif beradi aytadiki: "Haq subhanahu ma'rifati va hazrati rububiyyatning (zikri ulug'lansin) sifatlari va fe'llarining ma'rifati bu "al-ilm billoh" ("Allohol to'g'risidagi ilm")dir va bu "matlub lizotih" ("Allohning zoti uchun talab qilingan")dir. Bundan boshqa ilmlar esa "matlub liajlihi" ("Alloh uchun talab qilingan")dir. Bundan ko'rindaniki alloma ilmni ikki turga ajratmoqda 1. Allohol to'g'risidagi ilm" bu ilmda Allohning tanish unini bilish idrok qilishga bag'ishlangan taqvo, aqida ilmlari deb ko'rsatadi. 2. Allohol uchun talab qilingan bu ilmlar inson uchun ijtimoiy hayotda kundalik foydalanadigan soha ilmlaridir. Alloma ilm inson hayoti va faoliyatidagi ahamiyatiga to'htalib quyidagi fikrlarni oldinga surib jumladan: "Agar kishi yer yuzidagi barcha ilmni o'qisa va hamma hunarni o'rgansa, lekin birgina to'quvchilikdan malakasi bo'lmasa, to'quvchiga e'tiroz bildirolmaydi. Agar to'quvchilikni o'rgansa, baribir undanda ustaroq va ko'proq tajribaga ega bo'lgan bir kishi uning ishiga e'tiroz bildirsa, u buni inkor qilaolmaydi, inkor qilishi uchun esa unga ko'ringan xatoni fahmlashi va o'z xatosini kamchiliginini ko'ra olishi kerak. Uning aqliga kelganini ma'qullamasin. Undan e'tiroz javob bera olsin, uning so'zlarini va taklifiga ergashib ketmasin o'z fikrida mustahkab bo'lsin" deb ilm egasiga ko'rsatmalar beradi. Aql Xudoning insoniyatga bergen eng katta ne'matidir. Insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan asosiy xususiyat - bu aql. Allohol taolo insonlarga bergen barcha ne'matlari to'g'risida tafakkur qilishni, tafakkur qilish orqali o'zini va olamni bilish orqali, ollohning kuch-qudratini tafakkur qilishni tavsiya qilgan; Shuningdek, u aqlini ishlatmaganlarni qoraladi.

Zamaxshariy o'z maqolalarida aql, ziyoli va ziyoli shaxs haqida; Vaqt-i-vaqt bilan aqlli va ahmoq odamlarni solishtirishni e'tiborsiz qoldirmadi. Masalan, u "Aqlli va zukko inson ijtimoiy munosabatlarda sabrli va matonatlidir.

U oxiratda o'ziga foya foyda keltiradigan ishlar bilan band bo'ladi". Ahmoq va nochor odam kundalik ishiga dangasa va loqaydlik qiladi. U doimo hushyor bo'lishi kerak bo'lgan vaziyatlarda (oxirgi hayot uchun) e'tiborsiz bo'ladi. Ya'ni Allohol rozi bo'ladigan yaxshi amallarni qilishni istamaydi. (59-maqola).

Zamaxshariy bu maqolasida ritorikaning juda yaxshi namunasini keltirgan. Avval aqlli va nochor kishilarni tilga olib, so'ngra ularning sifat va xususiyatlariga tartib bilan o'tdi. Uning talqiniga ko'ra, "Aqlli odam aqlli (yaxshi) ishlarga chaqirilsa, ularni bajarishga shoshiladigan kishidir. Qobiliyatsiz kishi xuddi shu ishga chaqirilganda dangasalik qilib, orqaga qochadigan xayir bermaydigan kishidir". (71-maqola).

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamaxshariy o'zining keyingi ikki maqolasida aql-zakovat, aql-idrok, so'z amonlik, fasohat, bashorat kabi mavzularni misol qilib keltirgan. Darhaqiqat, mualif bu yerda ezgulikni-go'zallikni yomonlik/xunuklikni, yaxshilik va yomonlikni, ma'no va materiyani, ruh va tanani qiyoslaydi. Bu borada quyidagi misolni keltirishni o'rinli deb bilamiz.

Inson vujudida qalb va til kabi ikki kichik go'sht bilan shaxs kamolatga erishmaydi. Aksincha, imyon va amalning uyg'unligi bilan qadr topadi. Unga imyon va amal qadr bermas ekan, qalb va til hech narsaga hissa qo'shmaydi. Zamaxshari, Ya'ni, ularning asl o'zligini va shaxsiyatini beruvchi omillar imyon-e'tiqodi va e'tiqodi talablariga muvofiq qilgan amallaridir. (73-maqola).

Allomaning falsafiy qarashlarini mustahkamlash uchun ushbu jumлага e'tibor beramiz, Iso alayhissalom shunday degan: "Zuhd uch xildir: til, sukut, nazar. Kimning tili Allohdan o'zgani desa, behuda debdi. Kimning sukutida tafakkur bo'lmasa, bekorga bo'libdi. Kimning nazarida e'tibor bo'lmasa, hayf ketibdi" deb inson faoliyatining to'rt ustini bo'lgan Til, Sukut, Tafakkur, E'tiborning qanchalik muhim ekanligini yuqori baholaydi.

Mahmud az-Zamaxshariy dunyoni teran anglagan alloma – u har bir aytadigan so'zining mas'uliyatini his qilib falsafiy tafakkur qila oladi. Hayot zahmatlarini, qiyinchilik va kulfatlarini boshidan o'tkazgan zukko faylasufdek fikrlari teran va hayot qozonida pishib yetilgan. Undan bahramand bo'lgan har bir kishi o'zining qaysidir savoliga javob, o'zini qiy nab kelgan ba'zi ruhiy azoblariga shifo topadi. Biroq, uning fikrlarini tushunish, falsafasini idrok etish hammaga ham nasib etavermaydi, zero ulug'larning qarashlari ham yuksak bo'ladi. Misol sifatida az-Zamaxshariyning

## ILMIY AXBOROT

o'ziga hos ibora bilan pardalarda orasida tasvirlab bergan "nozik ibora" sini olaylik: "Qimorbozlar oy nurini g'animat bilib qimor o'ynasalar, tunlari qissayu hikoyatlar tinglovchilar esa, bedorlikka parvo qilmaydilar".

Az-Zamaxshariy bu yerda uchta narsani nazarda tutayapti:

Islom jamiyatida qimorbozlik kabi jirkanch o'yinlarning mayjud ekanligi.

Qissa va hikoyalarni insonga ma'naviy ozuqa bersa, qimor ma'naviy inqirozga olib keladi.

Vaqtdan unumli foydalinish.

Az-Zamaxshariyning zukkoligi, kuchli so'z ustasi va noyob iste'dod sohibi ekanligi shu iborani chuqurroq tahlil qilsak yanada ko'proq seziladi. U yashirin ma'nolar qaysilar?

Birinchidan, qimorbozlar xat-savodsiz kishilar; agar savodlari bo'lganida qimor o'ynamas edilar. Shuning barobarinda qissayu hikoyatlar tinglovchilar ham xat-savodsizdir; agar savodli bo'lganlarida qissayu hikoyalarni o'zlar o'qigan bo'lardilar. Az-Zamaxshariy shu xat-savodsiz ikki toifaning bir – birlaridan ma'naviy farqlari qay darajada ekanligini ko'rsatib berayapti.

Ikkinchidan, qimorbozlar oy nurida, ya'ni yorug'likda o'tirgan bo'lsalar-da, aslida ular zulmatda va jaholatdadirlar. Qissayu hikoyatlar tinglovchilar qaro tunda, ya'ni zulmatda o'tirgan bo'lsalar-da, aslida ular nurga burkangan oydin yo'ldadirlar.

Uchinchidan, oy nuri o'z yorug'ligi bilan yomonlikka xizmat qilayapti, qaro tun o'z bag'rida kitobxonlarni to'plab ma'rifatga xizmat qilayapti. Qaysi biri afzal?

To'rtinchidan, ikki toifa ham uxlamasdan bedorlar. Xo'sh qaysi bedorlik a'lo?

Az-Zamaxshariy o'zi yashab turgan muhitdan chiqib ketmagan holda fikr yuritadi. U zamonasining har bir fuqarosi tushuna oladigan tilda so'zlaydi. Bu uning fikrini, qarashlarini bildirishdag'i eng muhim xususiyatlardan biridir. Ammo, bugungi zamon kishilari uning fikrlarini, tajribaga asoslangan mustahkam xulosalarini tushunish uchun avval ta'kidlab o'tganimizdek, o'sha zamon ruhidan va islomiy bilimlardan anchagina boxabar bo'lishi shart. Fikrimizning tasdig'i uchun uning baxillikni qoralab aytgan fikrlarini olib ko'raylik. Alloma deydi: "Baxil-u xasisning qo'li oqarmas, ya'ni biror narsa berishga ochilmas – toki til bilan qattiq so'z so'zlanmaguncha, tog'dagi mavjud boyliklarni chiqarib bo'limas – toki lo'm bilan kuchli zarba urilmaguncha".

Bir qaraganda oddiydek tuyuladigan bu fikr, aslida ummon kabi ma'nolarni o'zida mujassam etgan.

Ma'lumki, baxillik hamma zamonlarda ham odamzotning qusuri sifatida ta'kidlab kelingan. Baxillikning qoralanishiga sabab, avvalambor u jamiyatdagi ijtimoiy nomutanosiblikni keltirib chiqarsa, ikkinchidan kishini insoniy sifatlardan ayirib, hayvonsifat qiladi. Mutafakkir az-Zamaxshariy "Baxil-u xasisning qo'li oqarmas" deganda nimani nazarda tutayapti? Biz Qur'on va undagi rivoyatlardan yaxshi xabardor bo'lsakkina bunda yashirin ma'noni to'liq va nafosati bilan tushuna olamiz.

Az-Zamaxshariy jamiyatda insonlarning o'z yo'li va maslagini tanlab olishda qiladigan sust harakatlariga chidab turolmaydi. U insonlarni jamiyatda o'z o'rinalarini topolmasliklariga sabab, ularning o'zlar deb biladi. Va bunday sustlik, jamiyatda o'z o'rninga ega bo'lmaslikdan chiqish yo'lini u insonning sa'y harakatida deb biladi. Az-Zamaxshariyning bunday xulosaga kelishi bejiz emas. U o'z hayotidan xulosa chiqardi. Negaki, u nimaga erishgan va yetishgan bo'lsa, barchasini o'zining tinimsiz izlanishlari va intilishlari, bu yo'lda qilgan sa'y-harakatlari natijasi deb bildi. Shu sababdan dono faylasuf afsus tariqasida aytadi: "Sa'y-harakat va ijтиҳод tabiiy va odatiy bo'lib, afsuski bu sa'y-harakat odamlarda juda nodirdir".

Az-Zamaxshariy demishki: "Kimniki qo'lidan xayr-barakali va purhikmat ishlar kelmasa, uning nasabining sharifligi-yu, ulug'ligi foyda keltirmas".

Alloma shu o'rinda g'arb faylasuflarining ham inson kamolotiga qaratilgan falsafiy qarashlariga to'xtalib quyidagi jumlalarni keltirib, deydi: "Aflatundan so'radilar: "Nega hikmat va mol-dunyonи birga jam qilolmaysan". U javob berdi: "Komillik azizroq bo'lgani uchun" deb komillikni inson uchun barcha narsalardan yuqori turishligini keltiradi.

Mutafakkirning asarlarida bayon etilgan axloqiy o'gitlar, pand-nasihatlar yosh avlodni aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, az-Zamaxshariyning "Navobig'u-l-Kalim" ("Nozik iboralar") risolasi axloqshunoslikning ajoyib maktabi sifatida e'tirof etiladi. Chunki bu asarda tarbiya, ma'naviyat va barkamollikka oid o'gitlar hamda pand-nasihatlar to'plangan. Allomaning mazkur asaridagi axloqiy qarashlari serqirra, ya'ni az-

Zamaxshariy ularda insonning go'zal fazilatlarini ulug' ne'mat deb bilib, kishilarda xulq-odob qoidalarini singdirish haqida so'z yuritadi.

Biz avvalroq ko'rib o'tganimizdek, az-Zamaxshariy qarashlaridagi ta'lilot ko'proq taqqoslash (yaxshi – yomon, ijobji – salbiy) vositasida bayon etiladi. Bu albatta, uning e'tiqodi, ya'ni Qur'on usuli bilan sug'orilganligini ko'rsatadi. Mutafakkir yaxshi fazilatlardan aynan namunali xulq-odob kishiga ko'rk bag'ishlashini, husniga husn, tarovatiga tarovat qo'shishini ta'kidlagan holda: "Xayr, ezgulikdan boshqa insonga ko'raklik beradigan hech narsa yo'qdir" deb uqtiradi.

Ilm, ijobji xulqqa ega insonlar har bir xalq, millatning ko'rkidir. Az-Zamaxshariy nasihatlari, hikmatlarini tahlil etar ekanmiz, ularda to'g'rilik, halollik, rostgo'ylik, poklik, ezgulikni ko'ramiz. U odamlarni yaxshi amallarga undab shunday yozadi: "Ezgulik, xayrli ishlarga astoydil kirish, ularni paysalga solib, keyin qilarman degan o'ylardan voz kechish, shayton yo'ldan uradigan shoshmasosharlik bilan emas, tafakkur va idrok bilan ish tut". Bu so'zlardan ko'rinish turibdiki, kishi birov larga qanchalik ko'p yaxshilik qilsa, qo'lidan kelganicha ularning og'irini yengillashtirsa, ularning kuchiga kuch qo'shilaveradi. Az-Zamaxshariy aytadiki, "Kimning himmati-yu muruvvati qanchalik ko'p bo'lsa, shunga yarasha odamlar uning qayg'usiga sherik bo'lar (hamdardlik bildirar)lar". Albatta, inson kimgadir yordam bera olsa, o'zida yo'q quvonadi. Xuddi shu kayfiyat uni yana yaxshilikka ilhomlantiradi. Shu o'rinda allomaning yana bir nasihatini keltirib o'tish joiz: "Avval qilib kelgan xayrliguzguliklarining keyin ham (ya'ni doimo) ezgulik qo'shavering. Chunonchi qushning qanotidagi kichik patlari katta patlariga madadkordir". Rostgo'y insonlarni ulug'lab alloma aytadiki, "To'g'ri va Haq yo'ldan yurgan kishining yurishi arslon yurishidan ko'ra ham mahobatliroqdir". Alloma o'zining "Atvahuzzahab" 77-maqolasida ilmiga amal qiluvchi insonni din olimining misolida chiroyli falsafiy tahlil qilib ko'rsatadi. Unga ko'ra; Amal qilguvchi uchun ilm quruvchining devor tekisligini o'lchaydigan asbobiga o'xshaydi. Olim uchun esa amal suv tortuvchining arqoniga o'xshaydi. Bas, qaysi quruvchida o'sha asbobi bo'limasa, binosi tekis bo'lmaydi. Kimning suv tortadigan arqoni bo'limasa, uning chanqog'i bosilmaydi. Kim komil bo'lishni xohlasa, albatta, amal qiladigan olim bo'lsin deb tarif beradi.

Shuningdek az-Zamaxshariyning axloqiy mavzudagi qarashlarida noyob insoniy fazilatlar – do'stlik, uning qadriga yetish to'g'risidagi fikrlar alohida e'tiborga molik. Bu haqda alloma shunday maslahat beradi: "O'z birodaringni yanchilgan mushkdan ko'ra ham xushbuy so'zlar bilan maqtab yod et. Garchand u sendan uzoq shaharda bo'lsa ham". Az-Zamaxshariyning fikricha, "Mard va oljanob kishining eng go'zal fazilatlaridan biri o'z birodarining ayblarini berkitib, uning barcha ishlarini o'zining ishlari o'rnida ko'rib ish tutishidir". Bu nasihatdan ko'rinish turibdiki, do'stga sadoqat, do'stga nisbatan vafodorlik kishining go'zal ziynati hisoblanadi.

Yaxshining yaxshiligidan bilish uchun yomonni ko'rish lozim. Shu ma'noda az-Zamaxshariy inson xulqida uchraydigan yomon illatlar haqidagi fikrlari ham o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda asqotishi shubhasiz. Yomon illatlar orasida takabburlik, manmanlik, minnat, adovat, xasislik, g'arazgo'ylik kabilarni u qattiq tangid qiladi. "Takabburlik – deydi az-Zamaxshariy – hech bir kimsaning qadr-qimmati va ulug'vorligini ziyoda qilmaydi, u bor yo'g'i dovul ichidagi shamoldan boshqa narsa emas".

Az-Zamaxshariy minnat eshitishni tog' tepasidagi qoyalarni ko'chirishdan-da og'ir ekanligini ta'kidlagan holda, "Mojaro bilan ko'rsatilgan muruvvatda (yaxshilik) xayrlik yo'qdir, garchand u (xayrlik) chelaklab quyilgan yomg'ir misoli bo'lsa ham", - deydi. "Vijdon azobi-yu ta'nadan to'g'ri bo'Imagan odamni (kimsani) ta'lum-tarbiya va qiyash ham to'g'riliashi amri mahol", - deydi buyuk vatandoshimiz, inson avvalambor ma'naviy mas'uliyatini his qilishi lozimligiga ishora qiladi.

Abu-I-Qosim Mahmud az-Zamaxshariyning eng e'tiborga molik fikrlaridan biri farzand tarbiyasi va uning axloq – odobining mas'uliyati ota-onada ekanligini uqtiradi. Bu bilan chegaralanmay u farzandga bilim berish va ma'rifatdan bahramand etish ham ota – onaning burchiga kirishini tushuntirib, shunga tashviq qiladi, undaydi. Az-Zamaxshariy deydi: "O'z farzandingizni imkon qadar yaxshi xulq – odobli, aqli bo'lishga o'rgating. Magarkim, kimarsa yoshlikdan yaxshi xulq odob egallamas erkan, ulg'ayganda ondin bilim talab qilmang. G'umay ekib bug'doy o'rolmaysiz-ku, axir. Hamon shunday erkan ota – ona o'z farzandiga dunyodagi jamiki ezguliklar bilan yo'g'rilgan ijobji xislatlarni singdirib bormoqligi ming karra shartdir. Shul bois bolaga nisbatan o'z zimmangizga yuklangan mas'uliyatni his etgan holda yaxshi ta'lum – tarbiya

## ILMIY AXBOROT

berishga intiling. U o'zida ijobiy xususiyatlarni o'zlashtirsin va yaramas hatti – harakatlardan o'zini muhofaza etsin".

**XULOSA**

Xuddi shuningdek, farzandlarni mustaqil hayotga o'rgatishning eng ma'qul yo'li sifatida u ularni mashaqqatsiz moddiy to'kinlik bilan taminlamaslikni maslahat beradi. U o'z asarida "Farzandga deb mol yig'ishlik unga abadiy hasrat yig'ishlikdir", - deb yozadi. Bundan ko'rindaniki alloma kishilarga farzandlarini ilm, xunar, bilan bir qatorda chiroyli tarbiya berishni, ularga to'kin hayot mol dunyo jamlab qoldirishdan Afzal deb falsafiy tahlil qiladi.

Ya'ni inson faqat ezgulik bilan kamol topishi mumkin degan g'oyani ilgari suradi. Yana Zamaxshariy yaxshi xulqlar haqida to'xtalib, Ular shunday bir "Ne'matlar uzoqlashganda ular shabada bo'lb ne'matlarni sen tomon haydaydi, chorlaydi. Azobu uqubatlar to'p-to'p bo'lib yopirliganda, ularni sendan uzoqqa quvadi, haydaydi". "Halol-pokiza kishi doimo xotirjamu tinchlikdadir, birovga xiyonatu yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir" deydi. Allomaning ta'kidlashicha, inson doimo ilm olishi, har qanday ishni aql, idrok, faxmu farosat, shariatga, payg'ambar alayxissalom ta'llimotlariga muvofiq amalga oshirishi lozimligini ta'kidlaydi. U jamiyatdagi riyokorlik, poraxo'rlik, isrofgarchilik, fisqu-fasod, baxillik kabi barcha salbiy illatlarni qoralaydi va ularni doimo yo'qotish, tuzatish zarurligini uqtiradi. Allomamizning mehnatsevarligi, uning ilimga bo'lgan qiziqishlari oqibatida musulmon olamida mashhur bo'lib ketadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Мұхаммад Парсонинг Фаслуп Ҳитоб. asl manba; Литография. F.X.Арифжонов.-б.227
2. Маҳмуд аз-Замахшарий. Атвоқуз-Заҳаб фи алмаваизи вал ҳутоб.-Қоҳира: Дарул-фазийла, 1993. – Б. 149.
3. Mahmud az-Zamaxshariy.Robiul-abror nususul axbor.ikkinch juz.b. 172.
4. Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий Нозик иборалар». Т.: 1992. – 61 б.
5. Қориев У. Ҳакимжонов М. «Арабу ажамлар устози». Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1995 й. 14 апрель.
6. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №.
7. Kakhramonova, K. S. (2024). THE ROLE OF SPIRITUAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 1(3), 84-102.
8. Jahongir, S. (2020). Philosophical views of Umar life. Academicia. An International Multidisciplinary Research Journal.–India, 10(4), 360-364.
9. Jahongir, S. INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MAY IN THE RUBA OF UMAR KHAYYAM. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 126.
10. Qakhrova, S. (2023). PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL TEACHING OF AMIR KHUSRAV DEHLAVI. Farg'oná davlat universiteti, (5), 17-17.
11. Jurakulovich, S. J. (2024). THE ROLE OF SPIRITUALITY IN THE IMPLEMENTATION OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(11), 307-311.
12. – C. 175-179. 3. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
13. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
14. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
15. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction". (2021).